

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI VAZIRLAR MAHKAMASINING
QARORI**

**YO‘LOVCHILAR TASHISH YO‘NALISHLARINI JOYLASHTIRISH UCHUN
TENDERLAR O‘TKAZISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH TO‘G‘RISIDA**

Yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlarida band bo‘lgan avtomobilda tashuvchilarni tender bo‘yicha tanlash mexanizmini takomillashtirish, shuningdek avtomobil transportida yo‘lovchilar va bagaj tashish qoidalarini tartibga solish maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi:

1. O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining **ilovaga** muvofiq ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilsin.

2. O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlarini joylashtirish uchun tenderlar o‘tkazishda qonun hujjatlari talablariga qat‘iy rioya etilishini ta‘minlasinlar.

Oldingi tahrirga qarang.

3. O‘zbekiston Respublikasining Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tenderlar o‘tkazishda raqobat to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta‘minlasin.

(3-band O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 16-avgustdagi 638-sonli qarori tahririda — O‘R QHT, 2017-y., 33-son, 863-modda)

4. Mazkur qarorning bajarilishini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining o‘rinbosari B.A. Xo‘jayev zimmasiga yuklansin.

O‘zbekiston Respublikasining Bosh vaziri Sh. MIRZIYOYEV

Toshkent sh.,
2011-yil 16-fevral,
34-son

Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 16-fevraldagi 34-son qaroriga
ILOVA

**O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining ayrim qarorlariga kiritilayotgan o‘zgartirish va
qo‘shimchalar**

1. Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 17-avgustdagi 350-son qarori bilan tasdiqlangan Shaharda yo‘lovchilar tashish yo‘nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlar tashkil etishga oid **nizomda** (4-ilova):

a) **2-bandda**:

“viloyat (shahar)” so‘zlari “O‘zbekiston Respublikasi” so‘zlari bilan almashtirilsin;
quyidagi mazmundagi xatboshilar qo‘shilsin:

“Tender qatnashchisi davlat soliq xizmati organlarida hisobda turishi hamda tender takliflarida tavsiya etilayotgan har bir avtotransport vositasi uchun tegishli litsenziyaga va litsenziya kartochkalariga ega bo‘lishi shart. Tender qatnashchisi aynan bitta avtotransport vositalarini har xil yo‘nalishlarga tavsiya etishga haqli emas.

Tugatish yoki bankrotlik bosqichida turgan yoxud mulkiga arest solingan talabgorlarning tenderda qatnashishiga yo‘l qo‘yilmaydi”;

b) **7-band** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“7. Tender kamida ikki qatnashchi mavjud bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi.

Tashuvchiga tender o‘tkazilmasdan yo‘nalishda ishlash huquqining birkutilishiga yo‘l qo‘yilmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

yangi yo‘nalish ochilgandan keyin uch-to‘rt oy mobaynida yangi yo‘nalishda avtotransport vositalarining muntazam sinov ishlari bajarilishi;

ko'cha-yo'l tarmog'ida oldindan kutilmagan vaziyatlarda, ayrim uchastkalar, transport uzellari va maydonlari yopilganda vaqtinchalik yo'nalishlar joriy etilishi;

yo'nalishlarning tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha soatbay haq to'lash asosida bajarilishi; dam olish zonalari, sport-sog'lomlashtirish komplekslari, yarmarkalarning faoliyat ko'rsatish davrida mavsumiy yo'nalishlarning tashkil etilishi;

maxsus yo'nalishlar (tashkilotlar xodimlarini ishga olib borish va ishdan olib ketish kabilar uchun) tashkil etish.

Tenderda qatnashish uchun buyurtmanomalar mavjud bo'lmaganda yoxud unda atigi bir nafar tashuvchi qatnashganda Komissiya ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda takroriy tender tashkil etishi kerak, bunda yo'nalishlar paketiga yoki yo'nalishga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

Agar takroriy tenderni o'tkazishda yo'nalishga (yo'nalishlar paketiga) yana atigi bir nafar tashuvchi talabgor bo'lsa, Komissiya ushbu tashuvchiga yo'nalishda (yo'nalishlar paketida) ishlash huquqini mazkur tashuvchining tender takliflari qo'yilayotgan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda birlashtirib qo'yish huquqiga egadir”;

v) 12-bandning **ikkinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Buyurtmanomalar berish va tender hujjatlarini olish uchun belgilangan muddat tender o'tkaziladigan sanadan 5 kun oldin tugaydi. Barcha buyurtmanomalar Komissiyaning tartib raqami qo'yilgan va ip o'tkazib tikilgan maxsus daftarida ro'yxatdan o'tkaziladi”;

g) 14-banddagi “qiymatini” so'zidan keyin “e'lonlar chop etish xarajatlarini hisobga olgan holda” so'zlari qo'shilsin;

d) 15-bandda:

sakkizinchi xatboshidagi “konvertlar to'plami (1 ta katta va 2 ta kichik) so'zlari “konvert” so'zlari bilan almashtirilsin;

to'qqizinchi xatboshi chiqarib tashlansin.

o'ninchi va o'n birinchi xatboshilar tegishli ravishda to'qqizinchi va o'ninchi xatboshilar deb hisoblansin;

to'qqizinchi xatboshidagi “Katta” so'zi chiqarib tashlansin;

e) 16-bandning **birinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Tender takliflarini qabul qilish tender o'tkazilishidan bir kun oldin to'xtatiladi”;

j) 19-bandda:

birinchi xatboshi quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Qatnashchining imzosi va muhri qo'yilgan tender takliflari Komissiyaga konvertda taqdim etiladi”;

ikkinchi xatboshidagi “konvertlar to'plami” so'zlari “konvert” so'zi bilan almashtirilsin;

z) 20-banddagi “komissiyasi” so'zidan keyin “yoki u saylagan hisoblash guruhi” so'zlari qo'shilsin;

i) 22 va 24-bandlar o'z kuchini yo'qotgan deb hisoblansin.

k) 25-bandning **birinchi xatboshi** quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“Tender takliflari quyidagi ko'rsatkichlar bo'yicha ko'rib chiqiladi va baholanadi”;

l) 27-bandga quyidagi mazmundagi uchinchi xatboshi qo'shilsin:

“Ataylab past tarif bilan tender takliflari taqdim etilishiga yo'l qo'ymaslik maqsadida Komissiya tender talablarida rentabellikni hisobga olgan holda tarifning yo'l qo'yiladigan eng kam chegarasini belgilashga haqlidir”;

uchinchi xatboshi to'rtinchi xatboshi deb hisoblansin;

m) 29-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“29. Eng ko'p miqdorda ball olgan tashuvchi aniqlangandan keyin Komissiya raisi ushbu qatnashchi to'g'risidagi ma'lumotlarni o'qib eshittiradi”;

n) 30-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“30. Tender o'tkazishdagi tartibot izchilligi quyidagicha bo'ladi:

a) Komissiyaning barcha a'zolariga tender takliflarini baholash shakllari tarqatiladi, ular tender takliflarini baholash shakllariga paket raqamini, qatnashchi raqamini qo'yishi va o'z familiyasini (7-ilova) yozishlari kerak.

Komissiya raisi yakuniy baholar qo'yiladigan shaklni o'zida qoldiradi (8-ilova);

b) Komissiya raisi katta konvertning o'ng tomonidagi yuqori burchagiga yirik raqamlar bilan birinchi tartib raqamini qo'yadi;

v) so'ngra rais tender takliflari joylangan konvertni ochadi, takliflarning har qaysi nusxasiga birinchi tartib raqamini qo'yib chiqadi va ularni Komissiya a'zolariga tarqatadi;

g) Komissiya a'zolari ushbu takliflarni ko'rib chiqadilar va tender takliflarining har qaysi bandi bo'yicha baho qo'yadilar. Komissiya a'zolarining baholari konvertga birinchi tartib raqami bilan joylashtiriladi.

Xuddi shunday tartibot mazkur yo'nalishlarning qolgan barcha konvertlari bo'yicha amalga oshiriladi;

d) Komissiya raisi olingan ballar asosida ushbu yo'nalishlar paketiga _____ raqamli qatnashchi tender g'olibi bo'lganligini e'lon qiladi;

e) tender g'olibining tartib raqami yozilgan katta konvertdan Komissiya raisi qatnashchi to'g'risidagi ma'lumotlarni oladi va ochiq tenderda yutib chiqqan hamda kontrakt tuzish huquqini olgan g'olibning ma'lumotlarini Komissiya a'zolariga o'qib beradi";

o) 31-bandning **ikkinchi xatboshidagi** "Komissiya raisi tomonidan imzolanadi va hokimlik muhri bilan tasdiqlanadi" so'zlari "Shahar yo'lovchilar tashish transportini boshqarish organi rahbari tomonidan imzolanadi va ushbu organning muhri bilan tasdiqlanadi" so'zlari bilan almashtirilsin;

p) 32-bandning **uchinchi xatboshiga** "bo'yicha" so'zidan keyin "uning tender takliflarining haqiqiyliigi Komissiya tomonidan aniqlanishi kerak bo'lgan" so'zlari qo'shilsin.

2. Vazirlar Mahkamasining "Shahar atrofi, shaharlararo va xalqaro yo'lovchilar tashish avtomobil transportida ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish masalalari to'g'risida" 1999-yil 29-iyuldagi 368-son **qarorida** (O'zbekiston Respublikasi QT, 1999-y., 7-son, 44-modda):

a) Shahar atrofida, shaharlararo (viloyatlar ichida, viloyatlararo) va xalqaro yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi **nizomda** (2-ilova):

2-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"2. Ochiq tenderda belgilangan tartibda O'zbekiston Respublikasi hududida ro'yxatdan o'tkazilgan, davlat soliq xizmati organlarida hisobda turadigan avtomobil transportida tegishli ravishda shahar atrofida shaharlararo, xalqaro yo'lovchilar tashishlarni amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziyaga hamda tender takliflarida tavsiya etilayotgan har bir avtotransport vositasi uchun litsenziya kartochkalariga ega bo'lgan har qanday yuridik shaxs qatnashishi mumkin. Har bir transport vositasini bittalab ko'rikdan o'tkazish bo'yicha belgilangan namunadagi, yo'l harakati xavfsizligi hududiy boshqarmasi muhri bilan tasdiqlangan, ijobiy xulosali dalolatnomaning mavjud bo'lishi qatnashchi uchun majburiy shart hisoblanadi. Tender qatnashchisi aynan bitta avtotransport vositalarini har xil yo'nalishlarga tavsiya etishga haqli emas.

Tugatish yoki bankrotlik bosqichida turgan yoxud mulkiga arest solingan talabgorlarning tenderda qatnashishiga yo'l qo'yilmaydi";

4-bandning **birinchi xatboshiga** "shuningdek uzunligi kamida 400 km bo'lgan ushbu yo'nalishlarning alohida jadvallari";

5-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

"5. Tender kamida ikki qatnashchi mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Tashuvchiga tender o'tkazilmasdan yo'nalishda ishlash huquqining birkutilishiga yo'l qo'yilmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

yangi yo'nalish ochilgandan keyin uch-to'rt oy mobaynida yangi yo'nalishda avtotransport vositalarining muntazam sinov ishlari bajarilishi;

ko'cha-yo'l tarmog'ida oldindan kutilmagan vaziyatlarda, ayrim uchastkalar, transport uzellari va maydonlari yopilganda vaqtinchalik yo'nalishlar joriy etilishi;

yo'nalishlarning tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha soatbay haq to'lash asosida bajarilishi;

dam olish zonalari, sport-sog'lomlashtirish komplekslari, yarmarkalarning faoliyat ko'rsatish davrida mavsumiy yo'nalishlarning tashkil etilishi;

maxsus yo'nalishlar (tashkilotlar xodimlarini ishga olib borish va ishdan olib ketish kabilar uchun) tashkil etish.

Tenderda qatnashish uchun buyurtmanomalar mavjud bo'lmaganda yoxud unda atigi bir nafar tashuvchi qatnashganda Komissiya ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda takroriy tender tashkil etishi kerak, bunda yo'nalishga (yo'nalishlar paketiga yoki jadvalga) yo'nalishga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

Agar takroriy tenderni o'tkazishda yo'nalishga (yo'nalishlar paketiga) yana atigi bir nafar tashuvchi talabgor bo'lsa, Komissiya ushbu tashuvchiga yo'nalishda (yo'nalishlar paketida yoki jadvalida) ishlash huquqini mazkur tashuvchining tender takliflari qo'yilayotgan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda biriktirib qo'yish huquqiga egadir”;

7-banddagi “yo'nalishlar paketlari” so'zlaridan keyin “yoki jadvali” so'zlari qo'shilsin;

10-banddagi “bahosini” so'zidan keyin “e'lonlarni chop etish xarajatlarini hisobga olgan holda” so'zlari qo'shilsin;

11-bandning yettinchi—o'n birinchi xatboshilari quyidagi mazmundagi yettinchi — o'ninchi xatboshilar bilan almashtirilsin;

“yo'nalishda (yo'nalishlar paketida, yo'nalishning alohida jadvalida) yo'lovchilar tashish transportida xizmatlar ko'rsatish bo'yicha kontraktning namunaviy shakli;

tender takliflari va qatnashchi to'g'risidagi ma'lumotlarni Komissiyaga berish uchun konvert.

Konvertga tenderga qo'yilayotgan yo'nalishning (yoki yo'nalishlar paketining, yo'nalishning alohida jadvalining) nomi yoziladi.

Agar tenderga bittadan ortiq yo'nalish (yo'nalishlar paketi, yo'nalishning alohida jadvali qo'yilgan bo'lsa), u holda har qaysi yo'nalish (yoki yo'nalishlar paketining, yo'nalishning alohida jadvali) uchun alohida konvert ajratilgan bo'lishi kerak. Tenderning u yoki bu qatnashchisini ajratib olish mumkin bo'lmaligi uchun konvertlarda hech qanday chiziqchalar yoki farqlovchi belgilar bo'lmaligi kerak. Tenderda qatnashishga talabgorga tender hujjatlari paketini berish maxsus daftarda ro'yxatdan o'tkaziladi”;

19-bandning ikkinchi xatboshidagi “mazkur yo'nalishda” so'zlaridan keyin “(yo'nalishlar paketida, yo'nalishning alohida jadvalida)” so'zlari qo'shilsin;

20-bandning ikkinchi xatboshidagi “bo'yicha” so'zidan keyin “uning tender takliflarining haqiqiyliqi Komissiya tomonidan aniqlanishi kerak bo'lgan” so'zlari qo'shilsin;

b) Shaharlararo-viloyatlararo va xalqaro yo'nalishlarni joylashtirish uchun ochiq tenderlar o'tkazishni tashkil etish masalalari bo'yicha idoralararo komissiya tarkibidagi (4-ilova) “O'zavtotrans” DAK boshqaruvi raisining o'rinbosari” so'zlari “O'zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligi boshlig'ining o'rinbosari” so'zlari bilan almashtirilsin.

3. Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 4-noyabrdagi 482-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2003-y., 11-son, 108-modda) bilan tasdiqlangan Avtomobil transportida yo'lovchilar va bagajni tashish qoidalari 6-bandning sakkizinchi xatboshidagi “belgilangan shakldagi” so'zlari “qat'iy hisobda turadigan” so'zlari bilan almashtirilsin;

4. Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 31-yanvardagi 11-son qarori (O'zbekiston Respublikasi QT, 2006-y., 1-son, 6-modda) bilan tasdiqlangan Toshkent shahrida yo'lovchilar tashish yo'nalishlarini joylashtirish uchun ochiq tenderlarni tashkil etish va o'tkazish to'g'risidagi nizomda:

a) 2-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“2. Tashuvchiga tender o'tkazilmasdan yo'nalishda ishlash huquqining birkutilishiga yo'l qo'yilmaydi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

yangi yo'nalish ochilgandan keyin uch-to'rt oy mobaynida yangi yo'nalishda avtotransport vositalarining muntazam sinov ishlari bajarilishi;

ko'cha-yo'l tarmog'ida oldindan kutilmagan vaziyatlarda, ayrim uchastkalar, transport uzellari va maydonlari yopilganda vaqtinchalik yo'nalishlar joriy etilishi;

yo'nalishlarning tashkilotlar buyurtmalari bo'yicha soatbay haq to'lash asosida bajarilishi;

dam olish zonalari, sport-sog'lomlashtirish komplekslari, yarmarkalarning faoliyat ko'rsatish davrida mavsumiy yo'nalishlar tashkil etilishi;
maxsus yo'nalishlar (tashkilotlar xodimlarini ishga olib borish va ishdan olib ketish kabilar uchun) tashkil etish”;

b) 6-band quyidagi tahrirda bayon qilinsin:

“6. Tender kamida ikki qatnashchi mavjud bo'lgan taqdirda o'tkaziladi.

Tenderda qatnashish uchun buyurtmanomalar mavjud bo'lmaganda yoxud unda atigi bir nafar tashuvchi qatnashganda Departament ushbu Nizomda nazarda tutilgan tartibda takroriy tender tashkil etishi kerak, bunda yo'nalishlar paketiga yoki yo'nalishga qo'yiladigan talablarning qayta ko'rib chiqilishiga yo'l qo'yiladi.

Agar takroriy tenderni o'tkazishda yo'nalishga (yo'nalishlar paketiga) yana atigi bir nafar tashuvchi talabgor bo'lsa, tender komissiyasi ushbu tashuvchiga yo'nalishda (yo'nalishlar paketida) ishlash huquqini mazkur tashuvchining tender takliflari qo'yilayotgan talablarga muvofiq bo'lgan taqdirda birkatib qo'yish huquqiga egadir”.

(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-y., 7-8-son, 58-modda; 2013-y., 37-son, 485-modda; 2017-y., 33-son, 863-modda)